TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	
"O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	



SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1110
Qodirov Bekzod Xomidjonovich	
FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI	1115
O'taganova Umida Egamberdi qizi	
MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilfuza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY MOHIYATI.....	1147
Pulatova Adolat Djaxangirshyevna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH JARAYONLARI	1152
Fayzieva Dilafruz Shuhratovna	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI	1156
Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li	
KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	1161
Bobomirzayev Isroil	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ.....	1165
АскарOVA Мавлуда Турабовна	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1171
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	1176
Muxitdinova Difuza Farxodovna	
KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOIYILLARI	1183
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)	1191
Togayev Salim Sobirovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1196
Obidov Sanjar Omonxo'jayevich	
O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH	1206
Suyunov Yorqin Bekturodovich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI	1212
Arifbayev Bobur Dilshodovich	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»	1219
Аблаева Валентина Борисовна	
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT	1227
I. Imomov, F.Nishonov	
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ	1234
Шоев Алим Халмуратович	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI	1247
Xasanova Xusnoraxon Faxriddinova	
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI	1251
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ	1257
Менглиева Индира Баходировна	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ	1261
Умарбеков Бахром Ботирбекович	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1270
Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL'NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1276
Jo'rabayev Jasur Abdurahmonovich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI	1282
Rasulov Shohruxbek G'ulomjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmonovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARINING XO'JALIKLAR TOIFALARI BO'YICHA TAHLILI	1286
Majidova Dilnoza Bahromovna	
TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTEKLEKTNING (SI) TA'SIRI	1290
Begimqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li	
MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI	1300
Xodjaeva Feruza Komilovna	
TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI IQTISODIY FARQLAR TAHLILI	1305
Saidakbarov Saidazam Aziz o'g'li	
KORXONALARDA UMUM ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBİ	1309
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	



ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI BELGILARI	1314
S.S. Ismatillaeva	
BUDJET TIZIMI BUDJETLARI IJROSI USTIDAN MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1320
Saidova Kamolat Farhodovna	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	1326
Нуриллоева Заррина Зокиржоновна	
SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1331
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi	
SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK JIHATLARI	1334
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDOCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISKLARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI

Rasulova Muxabbat Teshabayevna

Toshkent davlat agrar universiteti, katta o'qituvchi

Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti, katta o'qituvchi

Orcid-0009-0009-1241-9339.

E-mail: s.n.normurodov@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Shuningdek, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy kengayish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Maqolada pedagogik ta'limda innovatsion klaster yondashuvi, "maktab-laboratoriya" modeli va innovatsion tajriba mexanizmlarining o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi faoliyati, pedagogika, funksiya, ko'nikmalar, intellekt, maktab faoliyati, innovatsion yondashuv, klaster, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, omillar. "maktab-laboratoriya", innovatsion tajriba mexanizmlari.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of using innovative technologies in the education system. It also analyzes the core concept of the “green” economy, including issues related to rational use of resources, financial expansion, environmental protection, and sustainable development. The study highlights the role of the innovative cluster approach in pedagogical education, the “school-laboratory” model, and mechanisms for implementing innovative educational practices.

Key words: student activity, pedagogy, function, skills, intelligence, school activity, innovative approach, cluster, innovative pedagogical education cluster, factors, “school-laboratory”, innovative experience mechanisms.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования инновационных технологий в системе образования. Также анализируется основная концепция «зелёной» экономики, вопросы рационального использования ресурсов, финансового расширения, охраны окружающей среды и устойчивого развития. Особое внимание уделяется инновационному кластерному подходу в педагогическом образовании, модели «школа-лаборатория» и механизмам внедрения инновационного педагогического опыта.

Ключевые слова: учебная деятельность, педагогика, функция, навыки, интеллект, школьная деятельность, инновационный подход, кластер, инновационный кластер педагогического образования, факторы, «школа-лаборатория», механизмы инновационного опыта.

KIRISH

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar kadrlar tayyorlash sohasida ta'lim turlari o'rtasida aloqa va uzviylikni ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish jarayonida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, shuningdek, mavjud talab va ehtiyojlarni yanada chuqurroq hisobga olish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat bozoridagi talab va taklifni tizimli o'rganish orqali kadrlar taqsimotini hududlar kesimida yanada muvozanatli tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Mazkur jarayon ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni bosqichma-bosqich qondirish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish va bargaror kadrlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Intellektual



salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik hamda hamkorlik mustahkam yo'lga qo'yilganda, malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta'minlash va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy mexanizmlarni joriy etish globallashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etib, bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda uni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ijtimoiy va ta'limiy muhitining o'quv jarayoni samaradorligiga ta'siri pedagogika fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy ta'limda innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari respublika va xorijiy iqtisodchi, pedagog hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Xususan, akademik S. G'ulomov, B. Begalov, D. Tojiboeva, M. Hakimova, N. Fayzullaeva, I. Mamajonov, S. Xasanov, J. Yo'ldoshev, B. Safarov, G. Jukov, P. Matrosov, S. Kaplan, P.I. Pidkasistogo kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Jumladan, S. G'ulomov va B. Begalovlarning "Informatika va axborot texnologiyalari" nomli darsligida ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, masofaviy ta'limning imkoniyatlari va afzalliklariga alohida e'tibor qaratilgan. D. Tojiboevaning "Iqtisodiy pedagogika" o'quv qo'llanmasida esa iqtisodiy fanlarni o'qitishning shakl, metod va vositalari ilmiy asosda yoritilgan.

Shuningdek, M. Hakimova va N. Fayzullaevlarning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" o'quv-uslubiy majmuasi hamda N. Fayzullaeva va I. Mamajonovlarning "Kasbiy ta'lim uslubiyoti. O'qituvchining nutq madaniyati" nomli o'quv qo'llanmalarida iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasining muhim jihatlari keng yoritib berilgan.

S. Xasanov va J. Yo'ldoshevlarning "Pedagogik texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasida iqtisodiy ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalariga oid masalalar yoritilgan. B. Safarovning "Iqtisodiy ta'limda innovatsion va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari" mavzusidagi maqolasida iqtisodiy ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb yo'nalishlar tahlil qilingan.

Bundan tashqari, G. Jukov, P. Matrosov va S. Kaplanlarning "Основы общей и профессиональной педагогики" nomli o'quv qo'llanmasida pedagogik texnologiyalarning asosiy elementlari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash jarayonida iqtisodiy ta'limda hamda ta'lim tizimini boshqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, "yashil iqtisodiyot"ning o'rni, mutaxassislar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari, ta'lim jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali sifat va samaradorlikni ta'minlash, iqtisodiy ta'limni noan'anaviy usullar asosida tashkil etish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv hamda tahlil usullaridan samarali foydalanildi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangiliklar kiritish, mavjud yondashuvlarni takomillashtirishni nazarda tutadi va ularni amalga oshirish interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikrlashiga asoslanadi. Ushbu usullardan foydalanish natijasida bilim olish jarayoni o'quvchi uchun qiziqarli va mazmunli mashg'ulotga aylanadi.

Interfaol metodlar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchi bilan hamkorlikda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini egallaydilar. Yangi bilimlar ilmiy izlanish, tadqiqotchilik faoliyati hamda tajriba-sinovlar asosida o'zlashtiriladi va "ilm orqali bilim olish" tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydi, bunda o'quv topshiriqlari alohida o'quvchiga emas, balki guruhning barcha a'zolariga yo'naltiriladi.

O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblanadi. Hozirgi kunda darsning turli xil noan'anaviy shakllari keng joriy etilmoqda. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, aqliy salohiyatini oshirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hamda yangiliklarni tez va to'liq qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni kuchaytiradi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda samarali tatbiq etilib, o'zlashtirish sifati oshadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Iqlim o'zgarishlarining muhim oqibatlaridan biri shundaki, global harorat 3,2 °C ga ko'tarilgan taqdirda, 2050-yilga borib jahon iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulotining (YaIM) qariyb 18 foizini yo'qotishi ehtimoli mavjud. Mazkur prognoz ssenariylariga ko'ra, iqlim o'zgarishining iqtisodiy ta'siri, ayniqsa, Osiyo mamlakatlari uchun sezilarli bo'lishi mumkin. Jumladan, eng qulay ssenariyda YaIMga ta'sir darajasi 5,5 foizni, og'ir ssenariyda esa 26,5 foizni tashkil etadi.

Yuqoridagi tahlillar global haroratning oshishi bilan bog'liq holatlarni aks ettiradi. Agar bunga insoniyat faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan boshqa omillar, xususan, atrof-muhitning ifloslanishi (chiqindilar va issiqxona gazlari chiqarilishi), yashil hududlarning qisqarishi (o'rmonlarning kesilishi) kabi ekologik muammolarni ham qo'shib baholansa, ushbu jarayonlarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari yanada chuqurroq namoyon bo'lishini anglash mumkin.

Shu munosabat bilan bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan tabiatni uglerod va boshqa zararli chiqindilar bilan ifloslantirishga asoslangan "jigarrang" iqtisodiyotdan energiya va resurslardan samarali foydalanishga, biologik xilma-xillikni asrashga, ekotizimlarning barqarorligini ta'minlashga hamda inson farovonligini mustahkamlashga yo'naltirilgan "yashil" iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri ekanligini alohida ta'kidlab kelmoqda. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqlari [4], "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo bog'liqligi: barqaror rivojlanish uchun global darvoza" mavzusidagi chiqishlari, Orolbo'yi hududlarini ko'klamzorlashtirish tashabbuslari hamda "Yashil makon" umummilliy dasturi ushbu yo'nalishdagi izchil siyosatning yorqin namunasidir. Shuningdek, selektor yig'ilishlarida ham mazkur masalaga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish vazifalari belgilab berilgan [1].

Shuningdek, Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 51-maqсад sifatida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish belgilangan [2]. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 ming MVtga yetkazish, ularning umumiy energiya iste'molidagi ulushini 40 foizga oshirish, sanoatda "yashil sertifikatlar" bozorini rivojlantirish hamda "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy etish rejalashtirilgan.

2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan PQ-436-sonli qaror asosida 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tkazish va "yashil o'sish"ni ta'minlash dasturi ishlab chiqildi [3]. Ushbu dasturda issiqxona gazlari chiqindilarini YaIM birligiga nisbatan 2010-yilgi darajadan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini 15 GVtga oshirish va ularning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 30 foizdan ortiq darajaga yetkazish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, yiliga 200 million ko'chat ekish orqali shaharlardagi yashil hududlarni sezilarli kengaytirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarning amaliy ijrosi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yil 27-dekabr kuni Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasining ishga tushirilishi ushbu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu loyihalarning birinchi bosqichida umumiy quvvati 2400 MVt bo'lgan obyektlar foydalanishga topshirildi. Mazkur investitsiya loyihalari "Masdar" (BAA), "China Energy Engineering Corporation", "China Energy International Group", "China Gezhouba Group" hamda "SEPCO III, Dongfang Electric Corporation" kompaniyalari hamkorligida amalga oshirilmoqda [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bir so'z bilan aytganda, ekologik muammolarning salbiy ta'sirini kamaytirish hamda "yashil" iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun ham bugungi davrning dolzarb talabi hisoblanadi.

Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish va ekologik muammolarga samarali yechim topish uchun, avvalo, energiya resurslari, suv va yer resurslaridan tejamkor hamda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, elektr energiyasi ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, davlat-xususiy sheriklik asosida hamda xususiy tashabbuslar orqali yangi korxonalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, aholining ekologik savodxonligini, bilim va ekologik dunyoqarashini izchil rivojlantirish zarur. Ko'plab hollarda ekologiya masalalari keng jamoatchilik uchun yetarli darajada tushuntirilmaganligi sababli, bu yo'nalishdagi muammolar dolzarbligi to'liq anglanmaydi. Har bir inson ekologik holat, uning bugungi va



kelajakdagi oqibatlarini haqida yetarli bilim va axborotga ega bo'lishi lozim. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, masalan, AQShda 1965-yildan boshlab bolalar maktab yoshidanoq tabiatga ongli munosabat va ekologik muammolar asosida tarbiyalanib kelinmoqda.

Insonning turmush tarzi, sog'lig'i va uzoq umr ko'rishi bevosita ekologik holat bilan chambarchas bog'liq. Mamlakatimizda ekologiya masalalari bilan shug'ullanuvchi mutasaddi tashkilotlar, ekologik yo'nalishdagi jamoat tuzilmalari va vakolatli organlar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, ayrim ekologik holatlar yuzasidan aholiga tezkor va tushunarli axborot yetkazish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Masalan, 2021-yilda kuzatilgan changli hodisa keng jamoatchilikda ekologik xavfsizlikka bo'lgan qiziqishni oshirdi va bu kabi vaziyatlarda aholiga ilmiy asoslangan tavsiyalar berish muhimligini ko'rsatdi. Bu holat ekologik masalalar bo'yicha bilimlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Mazkur muammolarga samarali yechim topish uchun innovatsion yondashuv asosida bilim berishning barcha bosqichlaridan – maktab ta'limidan tortib oliy ta'lim tizimi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali ekologik targ'ibotni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, "yashil" iqtisodiyotga o'tish ko'p yo'nalishli va ko'p omilli murakkab jarayon bo'lib, u atrof-muhit holati, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, "yashil" transport, chiqindilarni boshqarish, zamonaviy "yashil" texnologiyalar, shuningdek, yer va suv resurslariga inson munosabati kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu muammolarning hududlar kesimida turlicha namoyon bo'lishi har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida yondashuvni talab etadi.

Bu borada xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirib tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun innovatsion yondashuv asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini keng yo'lga qo'yish zarur.

Shu munosabat bilan, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va ekologiya yo'nalishida faoliyat yurituvchi, yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu institut oliy ta'lim muassasalaridagi ekologiya yo'nalishidagi kafedralar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan bir qatorda, ekologik targ'ibot asosida aholining ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura bosqichida "Yashil iqtisodiyot" fani o'qitila boshlandi. 2023-yil may oyida "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida negizida "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida tashkil etilib, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab "Iqtisodiyot (yashil iqtisodiyot)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi ochildi va ushbu yo'nalishga 52 nafar talaba qabul qilindi. Shuningdek, universitetda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" nomli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ilmiy-ommabop oylik jurnal faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ayni paytda "yashil" iqtisodiyot va ekologik muammolar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan turli ilmiy seminar va tadbirlar o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, mamlakat va xalqaro miqyosda ushbu yo'nalishda ilmiy hamkorlikni yanada kengaytirish, oliy ta'lim muassasalari olimlari bilan tizimli aloqalarni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Inson salomatligi ekologik holat bilan bevosita bog'liq ekanligini inobatga olgan holda, sog'liqni saqlash tizimi bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhimdir.

To'rtinchidan, ekologik muammolarni ijobiy hal etish jamiyatning barcha qatlamlari – mutaxassislar, boshqaruv organlari va keng jamoatchilikning hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, toza energiya ishlab chiqarish va undan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish har bir fuqaroning kundalik faoliyatiga bog'liqdir. Shu bois "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish va mavjud ekologik muammolarga yechim topish uchun iqtisodiy mexanizmlarni ilmiy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqish, resurslardan foydalanish me'yorlari asosida rag'batlantirish va javobgarlik choralari uy'g'unlashtirgan tizimni keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida" PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230>
4. Mirziyoyev Sh.M., Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqlari. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4633>
5. Nigmatov A. va boshqalar. Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari. Monografiya. Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. 120 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>